

Hodisa Sodir Bo‘Lgan Joyni Ko‘Zdan Kechirish Bayonnomasini Rasmiylashtrishning Xususiyatlari

Jo‘rayev Farxodjon Maxmudjon o‘g‘li¹, Yo‘ldoshev Ilhom Abdujalil o‘g‘li²

Annotatsiya: Mazkur maqolada hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, uning tarkibiy qismlari hamda rasmiylashtrish tartibi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada amaliyotda hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasini rasmiylashtrishdagi protsessual xato va kamchiliklar oqibatida esa yozma dalilarning nomaqbul dalil sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligi haqidagi xulosalar hamda bunday muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, yozma (xususiy) dalil, nomaqbul dalil, bayonot (asosiy) qism, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

Bugungi kunda Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyati samaradorligini tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2898-soni qarori bilan jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining eng muhim vazifasi deb hisoblandi:

birinchidan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsgaadolatli jazo berilishi va aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmashligini kafolatlovchi jinoyat-protsessual normasini qat’iy ta’minalash;

ikkinchidan, jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to‘la va xolisona tergov qilish, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirishda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustunligiga, ularning sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishiga so‘zsiz rioya qilish;

uchinchidan, surishtiruvchi va tergovchilarining chinakam protsessual mustaqilligini ta’minalash, ularga nisbatan noqonuniy ta’sir ko‘rsatish hamda faoliyatiga asossiz aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

to‘rtinchidan, surishtiruvchi va tergovchilarga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ularning moddiy va ijtimoiy ta’minti masalalarini hal etish;

beshinchidan, ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika bo‘linmalari faoliyatiga ilg‘or kriminalistik va ilmiy-texnik vositalarni, shuningdek ishslashning zamonaviy shakl va uslublarini keng joriy etish [1].

Yuqorida jinoyat sodir etgan har bir shaxs qilish sohasidagi faoliyati samaradorligini oshirishda amalga oshirishlari uchun profesional tergovchi va surishtiruvchilarni shakllantirish masadga muvofiq hisoblanadi. Ya’niki, jinoyat ishi yuzasidan tergovchi va surishtiruvchi tomonidan o‘tkazilayotgan har bir tergov harakatlarini to‘la, har tomonlama, xolisona va zamonga mos mukammal tarzda amalga oshirilishi o‘z navbatida jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirish ustuni sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo, tergov amaliyotida bazi hollarda ayrim tergovchi va surishtiruvchilar tomonidan nafaqat tergov harakatini o‘tkazishda balki, tergov harakat natijalarini rasmiylashtrishda taktik va protsessual xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yish holatlari kuzatilmoqda. Amaliyotda bunday holatlarning uchrayotganligi jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanmasdan, ochilmay qolgan jinoyatlar sonini kundan-kunga oshib borishiga, shuningdek, jinoyatlarni tergov qilish samaradorli pasayib ketayotganligiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, eng asosiy tergov harakatlaridan

¹ O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasini o‘qituvchisi

² O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti



bir hisoblangan hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasini rasmiylashtirishda uchrayotgan muammo va kamchiklarga to‘xtalish orqali tavsiyaviy yechimlarni taklif qilmoqchimiz.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi – tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabдор shaxsi, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan ushbu tergov harakatini o‘tkazish jarayonida to‘plangan ma‘lumotlar asosida ramiylashtiriladi va jinoyat ishi yuzasida yozma (xususiy) dalil bo‘lib hisoblanadi. Hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘zdan kechirish natijalarini protsessual tarzda rasmiylashtirish ya’ni jinoyat-protsessual qonun talablari asosida amalga oshirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (bundan keyingi o‘rinlarda JPK) 90 – 92-moddalarida hodisa sodir bo‘lgan joydan topilgan dalillarni bayonnomada qayd etish tartibi ko‘rsatilgan. Ushbu moddalar talabi asosida yozilgan bayonnomalar jinoyat ishi bo‘yicha dalil manbai sifatida foydalanilishi mumkin. JPKning 90-moddasida bu to‘g‘risida shunday deyilgan: “*Ma‘lumotlar va narsalardan, ular tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilganidan keyingina dalil sifatida foydalanish mumkin*”[2].

Bayonnomalar yuritish uchun mas’uliyat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi va tergovchi, sudda esa raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnomalarga: tergov yoki sud harakatining ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, bu shaxslarga ularning huquq va majburiyatları tushuntirilgani; tergov yoki sud harakatining o‘tkazilish joyi va vaqtı, shart-sharoitlari, jarayoni va natijalari, bunda topilgan moddiy obektlar tavsifi va ularning ish uchun ahamiyatli bo‘lgan belgilari; tergov harakatlari yoki sud muhokamasi ishtirokchilari tasdiqlashni so‘ragan faktlar; ularning yuz berayotgan hodisa sabablari xususidagi ko‘rsatuvlari, tushuntirishlari, mulohazalari; ular tomonidan berilgan iltimosnomalar, shikoyatlar, rad etishlar; tergov harakatini olib borish yoki sud muhokamasi jarayonidagi tartibbuzarlik hollari, shuningdek bu tartibbuzarliklarni bartaraf etish va oldini olish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlar kiritiladi”[2].

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi hodisa joyini ko‘zdan kechirishni o‘tkazib bo‘lgandan keyin, konkret vaziyatni e’tiborga olib, hodisa joyining o‘zida yoki tergovchining xonasida tuzulishi mumkin. Qoidaga binoan, hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi hodisa joyini ko‘zdan kechirish tugallanishi bilanoq tuzulishi lozim. Ba’zi vaqtlarda hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasini tuzishda tergovchi ayrim taktik harakatlarni qo‘llash oqibatida xatoliklarga ham yo‘l qo‘yilishi mumkin. Jumladan, ayrim holatlarda hodisa sodir bo‘lgan joy ko‘zdan kechirish jarayoni bilan bog‘liq hech qanday yozuv aks ettirilmagan hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi blankasiga ikkita xolisning imzolari olinib, ko‘zdan kechirishni amalga oshiruvchi mansabдор shaxs tomonidan ko‘zdan kechirishdagi barcha kuzatilgan holatlar o‘zining yon daftarchasiga xomaki variant sifatida yozib olgan yoki telefon apparatiga suratga olingan holda, keyinchalik xizmat xonasida ushbu yon daftarchadagi ma‘lumotlar yoki suratlarga tayanib bayonnomani rasmiylashtirilmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida, bayonnomani tuzishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar qisqa mazmunda yozilishiga, “*Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida*”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorining talablari [3] buzulishiga hamda bunday tarzda rasmiylashtirilgan bayonnomma yozma dalil sifatida tan olinmasligiga sabab bo‘lmoqda. Eng achinarlisi, yo‘l qo‘yilayotgan bunday xato va kamchiliklar sababli sudda advokatlar jinoyat ishini himoyasi ostidagi shaxslar foydasiga hal qilishi natijasida haqiqatan ham jinoyatni sodir etgan shaxslarning javobgarlikdan ozod bo‘lishi yoki oqlanish holatlarini kuzatilayotganligidir.

Fikrimizcha, bunday salbiy holatlarni oldini olish va ularga chek qo‘yishning yagona yo‘li huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning mansabдор shaxslarini qonuniylik prinsipiga amal qilgan holda, protsessual tartibga to‘liq rioya qilishidir. Bu nafaqat protsessual harakatlarni o‘tkazishda balki, ularni rasmiylashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminalistikaga oid adabiyotlarda hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi uch qismga: **kirish, bayonot (asosiy) va xulosaviy** qismlarga bo‘linishi ta’kidlanadi [4, Б. 21].



Kirish qismida – hodisa joyini ko‘zdan kechirish joyi va vaqtin uni o‘tkazish boshlangan va tamom bo‘lgan vaqt, ko‘zdan kechirishda ishtirok etgan shaxslarning ismi, familyasi, xolislar va ularning manzillari, ko‘zdan kechirish qanday yorug‘likda o‘tkazilganligi (tabiiy yoki sun‘iy) ob-havo sharoiti va hokazolar ko‘rsatiladi.

Bayonot (asosiy) qismida – hodisa joyini ko‘zdan kechirish natijalari qayd etiladi. Bayonnomada hodisa sodir bo‘lgan joy qanday tartibda ko‘zdan kechirilgan bo‘lsa, shunday tartibda qayd etilishi lozim. Eng avvalo, ko‘zdan kechirish o‘tkazilayotgan joyga to‘liq tavsif berilishi kerak bo‘ladi. Agar hodisa joyi turar-joy yoki bino bo‘lsa, ularning aniq nomi (dam olish xonasi, balkon, yotoqxona, ombor va boshqalar), hajmi, joylashgan joyi (cherdak, qavati, yerto‘la) eshik va derazalar soni va ularning qaysi tomondan joylashganligi, ularning umumiy holati ko‘rsatiladi. Agar ko‘zdan kechirish ochiq joy va hududlarda o‘tkazilgan bo‘lsa, ularning harakterli nomlari (o‘rmon, avtotransport yo‘li va boshqalar) hodisa joyining mo‘ljal xususiyatiga ega bo‘lgan ob‘ektga nisbatan joylashgan masofasi qayd etiladi.

Hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasida topilgan barcha ob‘ektlarning qanday holatda turganligi, masalan, turar joylarda mebel, stol, stullarning umumiy holati, ishlab chiqarish korxonalarida asbob-uskunalar va texnikaviy vositalarning, yo‘llarning umumiy holati (tosh yo‘l, tuproq yo‘l) batafsил yozilishi kerak. Hodisa joyidan topilgan murda, qon izlari, uy shift va devorlardagi teshiklar, o‘q otish quroli, sovuq qurollarning kalibri, turi, pichoq yoki boshqa turdagи sovuq qurollarning uzunligi o‘lchanib, bayonnomada aniq qilib yozilishi shart.

Bayonnomalarning *xulosa qismida* ko‘zdan kechirish vaqtida topilgan va ish bo‘yicha dalil sifatida olingan barcha ob‘ektlar ko‘rsatilishi lozim, shuningdek, ko‘zdan kechirishda foydalaniladigan texnikaviy vositalar, turli chizmalar, sxemalar, suratga olish usullari ham batafsил qayd etiladi va bayonnomaga ilova qilinadi [5].

JKNing 91-moddasida dalillarni qayd etishning yordamchi usullari qayd etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, dalillarni qayd etish uchun bayonnomma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar tayyorlash va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo‘llanilishi mumkinligi, surishtiruvchi, tergovchi, sud bayonnomada dalillarni qayd etishning qanday usullarini qo‘llagani, foydalilanigan apparatlar, asboblar, uskunalar materiallarining texnikaviy tavsifini keltirib, tegishlicha tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida aks ettirishi belgilangan.

Shuningdek, bayonnomma ko‘zdan kechirishning barcha ishtirokchilariga o‘qib eshittirilishi yoki ishtirokchilar bevosita o‘zlarini tanishib chiqishlari mumkin. Bayonnomadagi ma’lumotlar to‘g‘ri rasmiylashtiriganligiga ishonch hosil qilingandan so‘ng ular tomonidan bayonnomma imzolanishi lozim.

Tergov amaliyotidagi 200 ga yaqin jinoyat ishlaridagi hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomalari o‘rganilganda, ularning aksariyati sifatsiz rasmiylashtirilgan bo‘lib, ulardagi yozuvlarning tushunarsizligi hamda ramiylashtirishdagi turli xil yondashuvlar va bir qator xatoliklar kuzatilgan.

Yuqoridagilarga hamda amaliy faoliyatning tahlillari natijalariga asoslanib, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi sifatlari va ko‘zdan kechirish ishtirokchilariga tushunarli yozuvlarda rasmiylashtirilishi bo‘yicha xulosa qilingan va bu bilan bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish maqsadida amaldagi JKNing 141-moddasini 2-qismini quyidagi tahririda bayon qilinishi taklif etiladi:

“Bayonnomada ko‘zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda ko‘zdan kechirilgan bo‘lsa, xuddi shu tartibda, ko‘zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo‘lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi. Ko‘zdan kechirish chog‘ida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab o‘tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma’lumotnomasi yoki bayonnomanining nusxasi yoxud bayonnomaning kompyuter texnikasida yozilgan ko‘chirmasi beriladi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish yakunlanganidan so‘ng, tergov harakati natijalarini o‘z vaqtida, to‘liq va protsessual rasmiylashtirish tartibiga rioya qilishni ta’minalash hamda olingan barcha ashyoviy dalillar bayonnomada aniq va to‘g‘ri qayd



etilganidagina ular jinoyatni o‘z vaqtida ochish, tergov qilish va sudda ko‘rib hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi va undan dalillarning bir manbai sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2898-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3180665>
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi// <https://lex.uz/docs/-111460>
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil
4. 24-avgustdagи “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarori.
5. A. Norboyev. Hodisa joyini ko‘zdan kechirish. Uslubiy qo‘llanma. – T.: TDYI nashriyoti. 2011. 26 bet.
6. <https://library-tsul.uz/hodisa-joyini-kozdan-kechirish-a-norboyev-2011>.

